



**NORMUROD NORQOBILOV QISSALARIDA SO‘ZNING KO‘CHMA
MA’NODA ISHLATILISHIGA DOIR**

Angren shahar ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Xudaynazarova Charos Sharifjonovna

Annotatsiya: Yozuvchi N.Norqobilov o‘z qissalarida tilning turli tasviriyl vositalaridan unumli foydalangan. Shulardan biri so‘zning ko‘chma ma’nolari hisoblanadi. Ushbu maqolada ko‘chimning metafora, metonimiya va sinekdoxa kabi turlari yozuvchi qissalaridan keltirilgan misollar asosida tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: ko‘chma ma’no, tasviriyl vosita, metonimiya, metafora, sinekdoxa, lingvistik mahorat, ko‘chim turi, leksema, sema, ichki aloqadorlik.

So‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash har bir ijodkordan katta mas’uliyat, alohida mahorat talab qiladi. Mahorat bevosita ijodkorning til bilishi, so‘zlarning ma’no tovlanishlarini chuqur idrok etgan holda go‘zal va betakror obrazli ifodalar yarata olishi bilan belgilanadi. So‘z qo‘llash va undan foydalanishni san’at darajasiga ko‘tara olgan ijodkorlardan biri Normurod Norqobilovdir. Adib badiiy nutqning obrazlilikini, tasviriyligini hamda ta’sirchanligini oshirish uchun tilning turli tasviriyl vositalaridan keng foydalangan. Shulardan biri so‘zning ko‘chma ma’nolaridir. Yozuvchi qissalari tilini bezashda ko‘chimning metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi turlaridan mohirona foydalanib, o‘zining betakror uslubini yaratdi. N.Norqobilovga xos lingvistik mahoratni belgilashda mazkur jihat o‘ta muhim va dolzarb hisoblanadi.

Metafora. O‘zbek tilshunosligida metafora haqidagi dastlabki ma’lumotlar R.Qo‘ng‘urov, M.Mirtojiev, M.Mukarramov, E.Qilichev kabi olimlarning ilmiy risolalarida uchraydi. Bundan tashqari, metaforaning lisoniy xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi maqolalar e’lon qilingan. Metafora obrazning nafaqat tashqi qiyofasi, balki uning ruhiyl olamida kechayotgan holatlarni tinglovchi yoki o‘quvchi kutmagan favqulodda badiiy hukm asosida tasvirlash yoki ifodalashga yo‘l ochadi. Shuning uchun metaforalar eng ko‘p ijodiylikni talab etishi bilan boshqa badiiy tasvir vositalaridan farq qiladi. Metafora yaratish ijodkordan keng dunyoqarash, olam va odam haqida chuqur fikr yurita olish, ruhiyat va tabiatni yaxshi bilishni talab etadi. Qissalarda qo‘llanilgan metaforaga misollar keltiramiz. Masalan: *Uzoq cho‘zilgan qorasovuqdan so‘ng yerga birinchi qor tushdi.* (O, 78). Bunda qora so‘zi metaforik ma’noda qo‘llangan bo‘lib, uning mohiyatini obyektivlik nuqtayi nazaridan baholash birmuncha qiyin. Qora leksemasining genetik semasi belgi, rang bildiradi, ifoda



semalarning bo‘rttirilishi darajasiga ko‘ra mo‘tadil ifodali (adherent konnotatsiyali) so‘z hisoblanadi. *Qora* leksemasi nutqda ko‘chma ma‘no hosil qilib, salbiy uslubiy bo‘yoqqa ega bo‘lishi mumkin. Yuqoridagi kontekstda *qora* leksemasi subyekt tomonidan salbiy okkazonal ma‘noda qo‘llangan, ya‘ni *qora* leksemasi sememasi strukturasida qo‘shimcha (ijtimoiy shartlangan) «sovuq» semasi bo‘rttirilgan. *Qora* leksemasining okkazonal ma‘no hosil qilishida sovuqning darajasini oshirib, metaforik ma‘no hosil qilgan. *Cholning kampiri bog‘idagi tosholmalarni sandiqqa joylab qishi bilan maktab bolalariga donasini yigirma tiyindan pullardi.* (Y, 17) matndagi *tosh* so‘zi metaforik ma‘noda qo‘llangan bo‘lib, uning genetik semasi qattiq jismni bildiradi. Olmaning uzoq muddat saqluvchi qattiq turiga nisbatan «*tosholma*» so‘zi ishlatilib, bu yerda *tosh* leksemsi metaforik ma‘no hosil qilgan. - *Anovi turqi sovuqni ober-chi, - dedi podachi Mallani ko‘rsatib. Temirdek qattiq barmoqlariga tish botirishdan o‘zini tiyib, jimgina turib berdi.* (O, 44) matnida sovuq leksemasi o‘zining genetik «past harorat», «past temperatura» yoki «temperaturasi belgili chegaradan past yoki juda ham salqin, ayoz» semalaridan chekinib, «gap-so‘zi, tashqi ko‘rinishi bilan kishiga yoqmaydigan kimsa haqida aytiladigan ibora» ko‘chma ma‘nosi asosida tashqi ko‘rinishni bildiruvchi metaforik ma‘no hosil qilmoqda. *Mamat qassob zardobini to‘ka-to‘ka nevaralaridan eslirog‘ini o‘g‘illariga yubordi.* (Y, 11) matnida zardobini so‘zi metaforik ma‘noda qo‘llangan. Yana: 1) *Masalan, u qopqon degan narsani yuz odimdan sezadi. Temir iskanja qanchalik ustalik bilan ko‘milmasin, unda o‘tirib qolgan turli hid yuzada qolaveradi-da.* (O, 84); 2) *Og‘zidan o‘t purkovchi qora kaltak uzoqdan xavfsiz ekanini u allaqachon fahmlab etgandi.* (O, 86); 3) *Bu qanotli maxluqlarni bir tomondan haydasa, ikkinchi tomondan yopirilardi.* (O, 96); 4) - *Ha, daydi! Qayerlarda sanqib yuribsan, Qorangni ko‘rsatmay qo‘yding? Hozir bir adabingni beraymi-a?!* (O, 99); 5) *Manzilga yuz odimcha qolganda, podachining o‘t sochuvchi kaltagini eslab, tag‘in to‘xtadi. Alamli g‘ingshidi.* (O, 100); 6) *Sho‘rlik hademay o‘g‘lini ur kaltak - sur kaltak qilishlaridan mutlaqo bexabar - ko‘zi rangli iplarda, xayoli oppoq yo‘rgakli chaqaloqda gursa-gursa qilich tortadi.* (Y, 4); 7) *Jondor zoti borki, ovozi eshitishi bilan qir boshida mixlanib qolaveradi.* (O, 44) kabi misollarning birinchi gapda temir iskanja birikmasi, ikkinchi gapda *og‘zidan o‘t purkovchi qora kaltak* birikmasi, uchinchi gapda *qanotli maxluqlar* birikmasi, to‘rtinchi gapda *daydi* so‘zi, beshinchi gapdagi *o‘t sochuvchi kaltak* birikmasi, oltinchi gapdagi *qilich* so‘zi, yettinchi gapdagi *mixlanmoq* so‘zi metaforik ma‘no hosil qilgan. Yozuvchi matnga obrazlilik, ta’sirchanlik baxsh etish maqsadida ikki narsa yoki hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlik, muvofiqlik asosida ularning biri o‘rnida xuddi shu ma‘noni anglatadigan so‘z yoki iboralardan metafora hosil qilib unumli foydalangan. Umuman,



metaforalar yozuvchining individual uslubini, asar badiiyatini ta'minlovchi muhim tasviriy vosita ekanligini N.Norqobilov ijodida ham ko'rish mumkin ekan.

Metonimiya. O'zbek tilshunosligida metonimiya bo'yicha ilmiy risola va maqolalar yaratilgan. Metonimiya – narsa-predmetlar, belgilar, harakatlar o'rtasidagi aloqadorlikka (bog'liqlikka) ko'ra nom ko'chishi hisoblanadi. Metonimiya badiiy asarda ijodkor g'oyasini, maqsadini yoritishda birmuncha muhim vazifa bajaradi. N.Norqobilov qissalarida ham metonimiya o'rinli ishlatilgan. Masalan: *Itlarning diqqati archazorga qaratilganidan foydalanib, tor ko'chaga sho'ng'idi. Qishloq mast uyquda.* (O, 85). Berilgan matn fragmentida *qishloq* leksemasi «aholisi, odamlari» semasi bilan metonimik jumla hosil qilgan. Ellipsis natijasida sodir bo'lgan nutqiy metonimiya *qishloq aholisi* birikmasining qisqargan shaklidir. Belgisiz qaratqich bilan ifodalangan metonimiya ellipsisga uchragan qaralmishdan anglashilgan o'rin-joyning belgi-xususiyatini ifoda etgan. Matnda yozuvchi *qishloq* leksemasi orqali metonimik jumla hosil qilgan. Yoki: *Olapar qo'shni qishloqlik Abdurayim ovchining iti. Kuzda u bu tomonlarga qadam qo'yganda, uning haybatli, ko'rkam kelbatini ko'rib, butun qishloq lol qolgandi.* (O, 45) matnida ham *qishloq* leksemasi «aholisi, odamlari» semasi bilan metonimik jumla hosil qilmoqda. *Arloni bo'ri itlarni pisand qilmaganidek, miltiqqa ham osongina chap berardi.* Matnida *miltiq* metonimik qo'lanilgan bo'lib, uning to'liq birikma shakli «miltiq tutgan kishiga, ovchiga» bo'lishi mumkin. Yana: - *Yo'q. Bunisi o'zimizda qoladi, - dedi Sodiq aka qat'iy bosh chayqab. - Qanjiqni yo'qotmoqchimiz...* (O, 44) matnida *qanjiq* so'zi, *To'xtab, ovozga quloq tutarkan, qorin g'amini unutdi.* (O, 85) matnida *qorin* so'zi, *Ikki kundan buyon kamardagi harom o'lgan sigir bilan band edi.* (O, 97) matnida *sigir* so'zi metonimiya hosil qilmoqda.

Sinekdoxa. O'zbek tilshunosligida o'zaro ichki aloqadorlik asosida butun-qism, birlik-ko'plik munosabatidagi ko'chim turi sifatida ta'riflanadi. Sinekdoxa nutqni rang-barang qilish bilan birga qism orqali butunni yoki butun orqali qismni ifodalaydi. Butun o'rnida bo'lak (yoki aksincha), birlik o'rnida ko'plik (yoki aksincha) ishlatilishi sinekdoxani hosil qiladi. Masalan: *Tunlari bo'ri poylayverib, biqinini shamollatib qo'rganidan so'ng, Karim podachi qopqon qo'yib ko'rdi.* (O, 44) gapida *biqin* leksemasi orqali nutqiy sinekdoxa hosil qilinmoqda. Bunda *biqin* sinekdoxa usuli bilan ma'no ko'chishida qism o'rnida butun munosabati aks etgan (biqindagi ta'na a'zolariga nisbatan butun hisoblanadi).

Ma'lumki, tilimizda tabiatdagi jamiyki, joni bor narsalarga nisbatan *jonliq, jonivor, jondor* so'zlari qo'llanadi. Yozuvchi bu so'zlarni mahalliy qo'llanilish xususiyatidan kelib chiqib, individual sinekdoxa hosil qiladi. Masalan: *Karim podachi*



- *sinchi, itni farqlay biladi. Negaki, qish kezlari qir oshib keladigan bo'rilardan kuygan*
 - *jondor desa yetmish yetti tomiri tortishadi, bo'rilarga yemish bo'lgan tomday-tomday*
novvoslari ko'z oldiga kelib, ichi-tashi baravar yonadi. (II, 44). Bugun tongda Abdi
usta ertapeshinda bizdi jonliqni yiqitib bering, qassob, deb ketgandi. (I, 19)
Oqbo yinning bo'rilarga nisbatan g'azabi boshda shunchaki o'chakishish tufayli edi.
Qachonki, jar tubida eshak jasadiga duch kelgandan keyingina unda nafrat uyg'ondi.
Kuni-kecha fermaxona tevaragida o'ralashib, mollarning nishxo'rdiga qanoat qilib
yurgan bu beozor, beziyon jonivorni xomtalash ko'rib, dastlab g'oyat hayratga tushdi.
(II, 81). Ushbu uchta matnni ko'zdan kechiradigan bo'lsak, birinchisida jondor bo'riga
nisbatan, ikkinchisida jonliq boqib semirtirib, so'yiladigan qo'y, echkiga nisbatan,
uchinchisida jonivor eshakka nisbatan sinekdoxa sifatida ishlatilganini ko'rishimiz
mumkin.

Umuman, yozuvchining sinekdoxadan foydalanish mahorati tahsinga loyiq. Adib sinekdoxalardan obrazli, ta'sirchan ifodalar yaratishda hamda badiiy matnda jonli so'zlashuv tiliga xos tabiiylikni, soddalikni, qolaversa, qissalari tilining xalqchilligini ta'minlashda individual foydalanib, o'zining betakror mahoratini namoyon eta olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Кўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977.
- 2.Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976.
3. Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент: Фан, 1982.
4. Усмонов С. Метафора // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1964. – №4.
- 5.Алиқулов Т. Метонимия ва полисемия // Тилшунослик ва адабиётшуносликка оид тадқиқотлар / ФА ТАИ тўплами. 6-қт. – Тошкент: Фан, 1965.